SHAYXNAZARBOY - DOVYURAK DEVONBEGI AVLODI

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi
“Hukmdor va shoir” bo’limi muduri:
Dilfuza Tashpulatova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida yashagan Shayxnazarboy hayot faoliyati va ijodi Xiva xonligining XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi va adabiy hayoti yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Bobojon to‘ra, Muhammad Rahimxon, Shayxnazarboy, Tosh bosma, Ibrohim Sulton, savdo-sotiq, Nurullabek, Tozabog‘, Nurullaboy saroylari.

DEVONBEGI –o‘rta asrlarda Sharqdagi islom davlatlarida saroy mansablaridan biri. Sug‘orish, moliya, harbiy, aloqa, adliya va boshqa ishlarni yurituvchi mahkama (devon) boshlig‘i[1].

Muhammad Rahimxon II(1864-1910) taxtga o‘tirgach, ishbilarmon odamlarni, olimlar va shoirlarni davlat ishlariga tortgan edi. U Xudoynazar devonbegini o‘z vazifasidan ozod etib, o‘rniga o‘zining qul otaliqi, aqlli va jasur Muhammad Murodni devonbegi etib tayinlaydi. Devonbegi butun kuch-quvvatini bildirilgan ishonchni oqlashga bag‘ishladi. U isyonchilar Xevaga hujum qilganida, o‘zining sakkiz ming otliq askari va 8-to‘pi bilan dushmanni mag‘lub etdi. Shundan keyin sulh tuzilib, Xorazmda osoyishtalik o‘rnatildi. Muhammad Rahimxon II Muhammad Murod devonbegining jangda bahodirlik qilgani va oqilona ish tutgani tufayli g‘alabaga erishganiligini yaxshi bilar edi.

Rossiya imperiyasi 1873 yilda Xiva xonligini egallab, o‘zlariga qarshi kurashgan Rahmatulla yasavulboshi va Matmurod devonbegini surgun qilgan.

[1] Ўзбек Миллий Энциклопедияси. 3-том, 229 бет. 2002 й.

Muhammad Rahimxon II ning tinimsiz so‘rovi natijasida nihoyat ularni 1879 yilda Matmurod, Rahmatulla va Abdullalarga vataniga qaytib ketishga ruxsat beriladi. 1880 yilning boshida Xivada xalq qahramonlarini xursandchilik bilan kutib oladilar[2].

Muhammad Murod devonbegi xon bilan bir necha marta Moskva, Peterburg safarlarida birga bo‘ldi. Chunki u xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan edi. Matmurod Feruzga bir umr sadoqat bilan halol xizmat qildi. Uning uchun xon el timsoli edi. 1902 yilda xonning eng sadoqatli va matonatli amaldorlaridan biri — Muhammad Murod (Matmurod) devonbegi dunyodan o‘tdi. Uning farzandlari Husayn Muhammadboy, Omonkeldiboy, Shayhnazarboy, Qutlug‘ Qadam, Qutlimurodboy, Xudoyberdiboy ismli o‘g‘illar ham o‘z davrida otasi kabi jasur va mard yigitlar bo‘lib etishdilar

Muhammad Murod devonbegining farzandi Shayxnazarboy 1870 yilda dunyoga keldi. U chaqqon, tirishqoq bola bo‘lib, 6 yoshida akasi Husain Muhammad bilan qozi Inoyatulla ohun qo‘lida tahsil oldi. Shayxnazarboy aql-idroki bilan tezda ustozi Inoyatulla ohunning e’tiborini qozondi.

U yoshligidan Navoiy, Sa’diy, Bedil va Ogahiy she’riyatiga mehr qo‘ydi. U bu buyuk shoirlarning g‘azallarini yod oldi, 10 yoshidan boshlab akasi Husain Muhammad bilan otda chopishni o‘rgandi, shuningdek do‘stlari bilan kurash tushar, arqon tortish musobaqalarida qatnashishni yaxshi ko‘rardi.

Keyinchalik oilasi Kalugaga surgun qilingan vaqtlari akasi Husain Muhammad bilan birga Voronej kadetlar korpusida o‘qidi. Bu erda merganlik, qilichbozlik, harbiy ilmlardan tashqari rus va chet tili fanlaridan bilim oldi.

Xon Shayxnazarboyni xarbiy xizmatga qabul qilishi natijasida Shayxnazarboyning harbiy tajribasi osha boradi. Uning zakovati, mardligi va jasoratini ko‘rgan Muhammad Rahimxon Shayxnazarni Ko‘hna Urganchga hokim qilib jo‘natadi. Shayxnazarboyning Ko‘hna Urganchda amalga oshirgan ishlari haqida Laffasiy quyidagicha yozadi: “Shayxnazar otasi Muhammad Murod devonbegining hayot zamonida Feruz Muhammad

[2] Давлатёр Раҳим. “Муҳаммад Мурод девонбеги”. Тошкент 2016, 111-б.

Rahimxon farmoni bilan Ko‘hna Urganch hokimi bo‘lib, yovmut johil, avboshlariga yaxshigina tanbeh va jazolar berib, Xorazm qit’a atrofi o‘zbek fuqarolarining tinch-osuda farog‘at dehqonchilik ishiga mashg‘ul qilib turadur. Yovmutlar jamoasidag‘i Shayxnazarning siyosatidin qo‘rquv ostida olar dog‘i tinchlik bilan dehqonchilikka mashg‘ul bo‘ladurlar”[3]. Shayxnazarboy Ko‘hna Urganchning obodligi va ozodaligi yo‘lida jiddiy ishlarni amalga oshiradi. U mevali daraxt va gujum ko‘chatlarini ektirib, shahar bog‘ini ancha ko‘rkamlashtiradi. Feruzning ko‘rsatmasiga ko‘ra, Ko‘hna Urganchdagi qadimiy obidalar: To‘rabekxonim, Shayx Najmiddin Kubro maqbaralarini ta’mirlatadi.

Shayxnazarboy hokimligi vaqtida viloyatda qaroqchilarning beboshliklariga chek qo‘yiladi, tartib-intizom yaxshilanadi, osoyishtalik o‘rnatiladi. Bundan mamnun bo‘lgan xon unga katta in’omlar berib, rag‘batlantiradi. Shayxnazarboy bo‘sh vaqt topdi deguncha, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanadi.

U o‘ziga “Shinosiy” (ma’nosi: tanimoq, bilmoq) degan taxallusni tanlaydi. Shinosiyning sermazmun g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, qit’alari Tabibiy, Mirzo, Bayoniy, Komil Devoniy, Chokar, Avaz O‘tar kabi shoirlarda yaxshi taassurot uyg‘otadi. O‘sha vaqtlarda saroyda devonlik qilgan va voqealar shohidi bo‘lgan Bobojon Tarroh Shayxnazarning botir va dono, chumchuqning ko‘zini uradurg‘on mergan ekanini aytib o‘tgan[4].

Bobojon Tarroh Azizov – Xodim[5]ning “Xorazm navozandalari” XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sayid Muhammad Rahimxoni II davrida yashagan shoirlar haqida esdaliklar kitobida javob beriladi.

Kitobda shoir Shayxnazarboy to‘g‘risida ham so‘z yuritilib: Shoirning nomi Shayxnazarboy,otasining nomi Matmurod bo‘lg‘on. Shayxnazarboyning adabiy nomi

[3]Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч, 1992, 52-бет

[4] Давлатёр Раҳим. “Муҳаммад Мурод девонбеги”. Тошкент 2016, 112 б.

[5]Бобожон Тарроҳ Азизов – Ходим 1878 йилда Хевада таваллуд топган. Бобожон Тарроҳнинг шеърлари шоҳ ва шоир Ферузга маъқул тушиб, уни мирзо ва сарой шоирларига раҳбар этиб тайинлайди. У бу вазифада ўн йил ишлаган ва воқеаларни ёзиб қолдирган. “Хоразм навозандалари” шу жиҳатдан энг муҳим манбалардан бири саналади.

Shunosiydir. Bu nomni o‘zi tanlab, Muhammad Rahimxon ikkinchiga taqdim qilg‘on va xonga ham bu ma’qul bo‘lg‘on.

Shayxnazarboy Xevaning tashqari qal’asida, Nurullaboy hovlisining yonidagi Matmurod devonbegining qal’a joyida tug‘ilg‘on. U eski maktabni bitirgan, lekin madrasa ta’limini olmag‘on. Zehni o‘tkirligi uchun shoir bo‘lg‘on. Shoir Shayxnazarboy askar boshlig‘i edi. Turkman bosmachilari Xorazmga hujum qilganida, Shayxnazarboy Xorazm podsholig‘idagi askarga boshliq qilinib, turkman bosmachilari ustig‘a yuborildi. 1911 yilda urush boshlandi. Asfandiyor Shayxnazarboyni ming otliqqa boshliq qilib tayinlandi. Shayxnazarboy vaziyat haqinda Ashir mahramga xat yozgan. Ashir mahram, Asfandiyor qo‘rqadi, degan xayolda hatni unga ko‘rsatmagan. Asfandiyor Yusuf yasavulboshiga, Shayxnazarboyni oldirib, osib o‘ldiraman, degan. Yusuf yasavulboshi Shayxnazarboyning Ashir mahramga xat yozganini bilardi. U xonga, avval Shayxnazarboyni so‘roq qilib, so‘ng o‘ldirsangiz, degan. Xon bu fikrni qabul qilib, Shayxnazarboyni so‘roq qilganida, u, Ashir mahramga ikki marta xat yozib yubordim, u sizni qo‘rqar deb aytmagan bo‘lsa kerak, degan. Shayxnazarboy shunday dono kishi bo‘lgan.

Shayxnazarboy shoirlik bilan 30 yoshlaridan boshlab shug‘ullana boshlagan. Shoir Shayxnazarboy uzun bo‘yli, chechak bashara, qora soqol, dono va siyosatli kishi edi. Faqat zarur gaplarnigina gapiradigan odati bor edi.

1911 yilda turkman bosmachisi Shommi kal urush boshladi. Men – Bobojon Tarroh Xodim Islomxo‘jaga kotib edim. Islomxo‘ja hali hayot edi. Shoir Shayxnazarboy askarboshi qilib tayinlandi. Shommi kal Xevani qamal qilish uchun hujum boshladi. Uning mingta askari bor edi. Shommi kalning askari Xeva shahrini qamab yotgan vaqtinda Shayxnazarboy Ashir mahramga ikki marta xat yozib, xon hazratlariga ayt, Shommi kal mingta askari bilan xonni Xevadan quvish uchun ketdi, deb ogohlantirgan. Biroq Ashir mahram xatni xonga bermagan. Yuqorida aytilg‘onidek, so‘roq vaqtinda hamma narsa ayon bo‘ldi. Ashir mahramning ahmoqligi bir odamning o‘limiga sabab bo‘layozgan edi. Urush qilgani Shayxnazarboy o‘rniga Kichik Mamat mahram bilan Urganch hokimi Olloberganboy yuborildi. Shixnazar ularga: sizlar mening o‘rnimga tayinlandingiz, lekin jang payti Muhammad Yusuf to‘raning hovlisida turib otishma qilmanglar, sizlarni

Shommi kalning askari o‘tga yoqib oladi, degan. Xon askarlari Shayxnazarboyning gapini e’tiborga olmay, Muhammad to‘raning hovlisiga kirib otishma qilganlar. Natijada Kichik Mamat mahram bilan Ollobergan boy o‘tda yonib o‘ldilar. Vaziri Akbar Sayyid Islomxo‘ja va Shayxnazarboyning sayi xarakatlari bilan Shommikal qo‘lga olindi va Shommi kalga ont ichirib, Xorazm podshosi bilan urushmaslikka xatlashildi. Shuning bilan Shommi boshqa urush qilmadi.

Bu qo‘zg‘olon bostirilgandan keyin yovmut Shomurod baxshi isyon qilib bosh ko‘targach, “Shayxnazarboy oning ham ustig‘a borib, muhoraba bilan Shomurod baxshini ham asir qilib keladur. Olardan keyin yovmut o‘ris qushchi tiyrasidagi Qurbon Mamad sardor (Junayid) bosh ko‘tarib, isyon qilgan. Shayxnazarboy oning ustiga borib, G‘oziobod qal’asining g‘arbiy changli mavzeyida Qurbon Mamad sardor bilan bir necha to‘qnashuvlar qilib, natijada oning birlan isloh etib, Asfandiyorxon xizmatiga keladur. Ammo bir ming to‘qqiz yuz dag‘i o‘n beshlanji yili iyun oyining boshlarida mohi sharifi ramazon erdi, Nikoloyi oq podsho farmoni bilan Toshkentdin general Xiva kelib Asfandiyorxon birlan bazmi majlisi shohona qilib, so‘ngra Shayxnazar Shinosiyni Olmaota qal’asiga o‘n sakkiz oy muddatlig‘ visilka qilib yuboradur[6]”

Shayxnazarboy surgunda yurgan vaqtlarida ham ijod bilan shug‘ullangan va devon tartib bergan.

Zihi sun’ing qilib bu gumbazu davvorni barpo,
Vale qahring bila nobud ham dunyou mofiho.
Farosat ahli ojiz keldilar vasfing bayonidin,
Qila olmay balog‘at xayli ham bir nuqtani insho.
Yaratding jumla olamni, xususan xayli insonni,
Ham etding qudrating birla birin a’lo, birin adno.
Birovni aylading yori mayi vasli ila sarxush,
Birovni boshig‘a solding baloyi hijr ila savdo.
Agar kohil va har shokil, biriga rizq etkurging,

[6]Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч, 1992, 53-бет

Emas bebahra xoni ne’matingdin johilu dono.
Ne mumkin bo‘lmoq ogoh ramzidin, bo‘lg‘usidur uldam,
Kitobi sun’inga boqqach xiradning chashmi nobino.
Shinosiyga muyassar aylabon fazling mayidinkim,
Ilohiy hamding aytur chog‘da doim qil tiling go‘yo.

Shayxnazarboy surgundan keyin Xivaga qaytib kelgan va xon amaldorlari tomonidan zaharlangan. Shoir Shixnazarboy o‘z tug‘ilgan joyida emas, balki Xevaning tashqari qal’asi ichindan o‘tgan ariq bo‘yidagi uyida vafot etdi. Jasadi Muhammad Rahimxon II ning atrofinda, Chodirli Eshon qabristoniga qo‘yilg‘on.[7]Xozirgi kunda shahar tashqarisidagi Shohimardon qabristoniga ko‘chirilgan.

Shayxnazarboydan to‘rtta o‘g‘il va bitta qiz qolgan. Muhammad Nazarboy (1980-, Asad SHixov (1895-, Said Nazar(1909-1959), La’liposhsha (1910-1979), Davlat Nazarov(1913-:

Mustaqilligimiz sharofati bilan qarovsiz yotgan madaniy meros obidalari ta’mirlanishi oqibatida ko‘pgina tarixiy obidalarga qayta jon bag‘ishlandi, ko‘pgina manbalar topildi, tarixi o‘rganildi, jumladan 2019 yilning avgust oyida Xiva shahridagi XIX asr oxirlarida qurilgan - Xiva xoni yasaulboshisi Shayxnazarboyni hovlisini tamirlab turgan ustalar tamonidan bir talay XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid xujjatlarni topdilar. Ushbu 49 ta kozixat va 3 ta Xon yorliqlari muzey mutaxassislari tamonidan o‘rganilib, tamirlash va saqlash bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Qozixatlarni va xon yorliqlarini o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘ldikki Shayxnazarboy o‘g‘li Muhammad Murod devonbegining 1281 xijriy(1864 y) dagi tuzilgan oldi – sotdi qozixatida “Ko‘hna qal’a” ichidagi 700 gaz er maydoni ichida uylari bilan 1500 tillo evaziga sotilgani bilan xayratlantirdi.

Qadimiy Xiva zaminida shunday katta mulkdorlar bor ekanligi, bu Xiva xalqining iqtisodiy xayoti azaldan salohiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

[7]Бобожон Тарроҳ. “Хоразм навозандалари”. Нашрга тайёрловчи Давлатёр Раҳим. Тошкент 1994 йил.